## O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI

HSM



5-MAV
ZU

# O‘zbekistonda demokratik, fuqorolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar.

**Bohodirov Ihtiyor Bohodir o’g’li**

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

# Reja:

- Milliy davlat boshqaruv tizimi.
- Mustaqil O’zbekistonda hokimyat bo’linish tizimi.
- O’zbekistonda ko’ppartiyaviylik tizimining shakllanishi.

# 1991-yil 31-avgust O’zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e'lon qilindi.





**1991 yil 31-avgustda Oliy Kengash sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»**

**Qonun qabul qilindi. Oliy Kengashning VII sessiyasida**

**1991 - yil 30 sentabr kuni «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risi»gi Qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomini berishga qaror qilindi.**

**1991 - yil 29 dekabr kuni umumxalq referendumi bo'lib o'tdi. Referendumda 9.898707 kishi oki salov ro'xatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi.**

Ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 foizi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini ma'qullaymiz, deb ovoz berdi

# PREZIDENT I.KARIMOV – MUSTAQIL O‘ZBEKISTON DAVLATChILIGI ASOSChISI

- Mustaqil davlatning iqtisodiy-siyosiy va ma’naviy hayotini yangicha asoslarda shakllantirishda bosh-qosh bo‘ldi. Uning boshchiligida huquqiy demokratik davlat asoslari barpo etildi
- Davlat boshqaruvi, jamiyatning barcha sohalarida tub islohotlar o‘tkazilda va modernizatsiya qilindi
- Uning rahbarligida o‘zbek xalqi talofat va qurbonlarsiz o‘tish davrini boshidan kechirdi
- Islom Karimov tahlikali, O‘zbekistonga tashqi xavflarning kuchaygan davrida ham mamlakat ichkarisida tinchlik va barqarorlikni o‘rnatdi



**1991 - yil 29 dekabr kuni muqobyillik asosida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti salovi bo’lib o’tdi. Prezidentlikka nomzod I.Karimov uchun ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi. Markazi salov komissiyasi salov yakunlarini ko’rib chiqib, I.A.Karimovni 1991 - yil 29 dekabrdan O’zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga saylangan, deb xisoblashga qaror qildi.**

**1. 1991 yil 5-sentabr Lenin maydoniga “Mustaqillik maydoni” nomi berildi**

**2. 1992 yil 8-dekabr Oliy Kengashning XII chaqiriq XI sessiyasida 6 bo’lim, 26 bob, 128 moddadan iborat Konstitutsiyamiz qabul qilindi**

**3. 1991 yil 18 noyabr “O’zbekiton Respublikasi prezidentligiga saylov to’g’risida qonun” qabul qilindi**

**4. 1991, 2000, 2007, 2015, 2016 yillarda O’zbekiston prezidentligiga saylovlar bo’lib o’tdi**

## O‘zbekistonda davlat boshqaruv tizimi

**PREZIDENT**
**Har uch yo‘nalishdani davlat hokimiyatining faoliyatlarini muvofiqlashtirib turadi**

### Qonun chiqaruvchi hokimiyat

2 yuqori palata Senat qonunchilik palatasi 100 deputat

1 quyi palata  qonunchilik palatasi 150 deputat (doimiy faoliyat yuritada)

### Ijro etuvchi hokimiyat

Bosh vazir

Vazirliklar
Konsernlar
Xoldinglar
Kompaniyalar

### Sud hokimiyati

Sudlar
Jinoiy, fuqarolik va xo‘jalik ishlar buyicha ixtisoslashgan

# Prezidentlik hokimyati

a. **“Prezident” so’zi “oldinda o’tiruvchi” degan manoni bildiradi**
b. **1990-yil 24-mart kuni O’zbekistonda prezidentlik hokimyati joriy etiladi**
c. **1990-yil 24-mart kuni Islom Karimov Oliy Kengashining birinchi sessiyasida xalq deputatlari tomonidan yashirin ovoz berish yo’li bilan saylandi.**
d. **1991 yil 29 dekabrda O’zbekistonda ilk bor umumxalq prezidentlik saylovlari bo’lib o’tadi**
e. **1991 yil 18 noyabr«O’zbekiston Respublikasi prezidenti saylovi to’g’risida»gi qonun qabul qilingan.**
f. **2002-yil O’zbekistonda prezidentlik vakolati muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi**
g. **2011-yil prezidentlik vakolati muddati 7 yildan 5 yilga qisqartirildi**

# Prezidentlik hokimyati

**O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIX bobi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy maqomiga, xususan, 93-moddasi respublika Prezidentining vakolatlariga bag'ishlangan.**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari maqsadi, mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi**

**- Qonunchilik va qonuniylik sohasidagi vakolatlar;**
**- Davlat organlarini tuzish sohasidagi vakolatlar;**
**- Fuqarolarning huquq, erkinliklari, burchlari va qonuniy manfaatlari sohasidagi vakolatlar;**
**- Xalqaro munosabatlar sohasidagi vakolatlar;**

# O’zbekiston Respublikasi prezidentlari

| № | Muddat | Prezident | Surati | Prezidentlik davrining tugashi | | | Partiyasi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 1 | Islom Karimov |  | 24-mart 1990[2] | 29-dekabr 1991 | 645 kun | KPSS |
| | 2 | | | 29-dekabr 1991 | 9-yanvar 2000 | 2933 kun | O‘zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi |
| | 3 | | | 9-yanvar 2000 | 22-dekabr 2007 | 2904 kun | Fidokorlar |
| | 4 | | | 22-dekabr 2007 | 10-aprel 2015 | 2666 kun | O‘ZLIDEP |
| | 5 | | | 10-aprel 2015 | 2-sentyabr 2016 | 511 kun | O‘ZLIDEP |
| 2 | v.b. | Shavkat Mirziyoyev |  | 8-sentyabr 2016 | 14-dekabr 2016 | 98 kun | O‘ZLIDEP |
| | 1 | | | 14-dekabr 2016 | hozirgi kunga qadar | | O‘ZLIDEP |

# Prezidentlik hokimyati

**O’zbekiston Respublikasi prezidentining asosiy vakolatlari:**

*- Fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafilidir;*

*- O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi;*

*- Mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi;*

*- O‘z huzurida akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik hamda boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi; O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash uchun nomzodlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;*

*- Senat Raisi lavozimiga saylash uchun nomzodni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdim etadi;*

*- O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri iste’foga chiqqanda, Bosh vazirga nisbatan bildirilgan ishonchsizlik votumi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan qabul qilinganda yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda lavozimidan ozod qiladi;*

*- O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zolarini tasdiqlaydi va lavozimlaridan ozod qiladi;*

*- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va Hisob palatasi raisini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi*

# Prezidentlik hokimyati

## O’zbekiston Respublikasi prezidentining asosiy vakolatlari:

- *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo‘jalik sudi raisi va sudyalari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi;*
- *O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi.*
- *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga haqli;*
- *O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini imzolaydi va e’lon qiladi; qonunga o‘z e’tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo‘yish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli;*
- *O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug‘ilganda urush holati e’lon qiladi va qabul qilgan qarorini uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tasdig‘iga kiritadi;*
- *Favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat, epidemiyalar) yuz berganda O‘zbekistonning butun hududi yoki ayrim joylarda favqulodda holat joriy etadi*
- *O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo‘mondoni hisoblanadi, Qurolli Kuchlarning oliy qo‘mondonlarini tayinlaydi va vazifasidan ozod qiladi, oliy harbiy unvonlar beradi;*

# Prezidentlik hokimyati

## O’zbekiston Respublikasi prezidentining asosiy vakolatlari:

*- O‘zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari va yorlig‘i bilan mukofotlaydi, O‘zbekiston Respublikasining malakaviy va faxriy unvonlarini beradi;*

*- O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etadi;*

*- amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga taqdimnoma kiritadi va O‘zbekiston Respublikasining sudlari tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi;*

*- Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, keyinchalik shu masalalarga doir farmonlarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi;*

*- Ushbu Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Prezident o‘z vakolatlarini bajarishni davlat idoralariga yoki mansabdor shaxslarga topshirishga haqli emas.*


OLIY MAJLIS

# *O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI PARLAMENTI —OLIY MAJLISNINGTASHKIL ETILISHI

- 1990-1994 yillarda mamlakatimizda 150 deputatdan iborat Oliy Kengash faoliyat olib boradi
- 1993-yil28-dekabida bo’lib o’tgan Respublika Oliy Kengashining XIV-sessiyasida **„O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to’g’risida“** qonun qabul qilingan.
- 1994-yil 22-sentabrda bo’lib o’tgan XVI sessiyada **„O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to’g’risida" qonunlar qabul qilindi.**
- 1995 yil Oliy Kengash Oliy majlisga aylantirildi va u 250 deputatni o’z ichiga oladi
- Birinchi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995—1999-yillarda 15 ta sessiya o’tkazdi. Sessiyalarda 10 ta kodeks, 2ta milliy dastur, 145 qonun, 452 qaror qabul qilindi. Amaldagi qonunlarga jami 216 ta qo’shimcha va o’zgarishlar kiri-tildi. Shuningdek, Oliy Majlis 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi (tasdiqladi), xalqaro konvensiyalarga qo’shilish to’g’risida 58 ta qaror qabul qildi.

# IKKI PALATALI PARLAMENT

* 2002-yil 27-yanvarda 2 palatali parlament tashkil etish masalasida O’zbekistonda referendum bo‘lib o’tadi

* 2002-yil 4—5-aprel kunlari bo’Iib o’tgan ikkinchi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida **„Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to’g’risida"** Konstitutsiyaviy qonun va **„2002-yil 27-yanvarda o’tkazilgan O’zbekiston Respublikasi Referendumining yakunlari bo’yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo’nalishlari to’g’risida"** qaror qabul qildi. Bu hujjatlar ikki palatali parlament tuzish ishlarini boshlashga huquqiy asos bo’lib xizmat qildi.

*2002-yil 12-13-dekabr kunlari bo’lib o’tgan Oliy Majlisning X sessiyasi **„O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to’g’risida" va „O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to’g’risida"** konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qildi**.** Shuningdek, 2003-yil 24-aprelda **„O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o’zgartishlar va qo’shimchalar kiritish** to’g’risida"gi Qonun qabul qilindi.

* 2005 yildan O’zbekistonda ikki palatali parlament o’z ish faoliyatini boshladi

* Oliy Majlis tarkibida ikkita palata tuziladi. Yuqori palata —**Senat,** quyi palata **—Qonunchilik palatasi,** deb ataladi. Ikkala palataning vakolat muddati —5 yil etib belgilangan.

# IKKI PALATALI PARLAMENT




* O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 6 kishidan senator saylanadi
* Senatining 16 a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

# OLIY MAJLIS VAKOLATLARI

**1) O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish;**
**2) O`zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonunlarini, qonunlarini qabul qilish, ularga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish;**
**3) O`zbekiston Respublikasining referendumini o`tkazish to`g`risida va uni o`tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;**
**4) O`zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo`nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;**
**5) O`zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O`zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;**
**6) boj, valuta va kredit ishlarini qonun yo`li bilan tartibga solish;**
**7) O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O`zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish;**
**8) Soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni joriy qilish;**

# OLIY MAJLIS VAKOLATLARI

**9)O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo`li bilan tartibga solish, chegaralarini o`zgartirish;**
**10) tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o`zgartirish;**
**11) davlat mukofotlari va unvonlarini ta'sis etish;**
**12) O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;**
**13) O`zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O`zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko`rib chiqish va tasdiqlash;**
**14) O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo`yicha vakili va uning o`rinbosarini saylash;**
**15) O`zbekiston Respublikasi hisob palatasining hisobotini ko`rib chiqish;**
**16) xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish;**

# OLIY MAJLIS QO'MITALARI

1. Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm maslalari qo'mitasi
2. Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi
3. Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurash qo'mitasi
4. Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi
5. Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi
6. Xotin-qizlar va gender tenglik maslalari qo'mitasi
7. Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi
8. Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi

# Vazirlar Mahkamasi



## Vazirlar Mahkamasi

1990 yil 15 noyabr “Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasi tarkibini tasdiqlash to’g’risida” farmon chiqadi

1993 yil “Vazirlar Mahkamasi to’g’risida” qonun qabul qilinadi

## O’zbekiston Bosh vazirlari:

1990-1992 yillar Shukrullo Mirsaidov (vitse-prezident)
1992-1995 yillar Abdulhoshim Mutalibov
1995-2003 yillar O’tkir Sultonov
2003-2016 yillar Shavkat Mirziyoyev
2016- yildan Abdulla Aripov

# VAZIRLAR MAHKAMASI TARKIBI

- O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasiga (qisqacha nomlanishi –O‘zbekiston XDP) 1991-yil 1-noyabrda partiyaning Ta'sis qurultoyida asos solindi. Partiya tarkibida 14 ta mintaqaviy, 200 ta tuman va shahar tashkilotlar bor.



- O’zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasi 1995 yil 18 fevralda tashkil etilgan.

O'ZBEKISTON
ADOLAT
SOTSIAL - DEMOKRATIK
PARTIYASI






- 2003-yil 15-noyabrda O’zbekiston Liberal-demokratik partiyasining ta'sis majlisi bolib otdi. U tadbirkorlar va ishbilarmonlarni birlashtiruvchi partiya bolib, O’zbekiston da bozor munosabatlarini rivojlantirishda muhim rol oynashga qaratilgan.
- Partiya «XXI asr» gazetsiani nashr etadi.

1995 yil iyunda **O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi** tashkil etiladi.

**2008 yil 20 iyun** kuni O'zbekiston "**Milliy tiklanish**" demokratik partiyasi va Fidokorlar milliy demokratik partiyasi yagona partiyaga birlashadi.






## Ekologik xahakat  2-avgust 2008 yilda tuzilgan.

- **Ozbekiston Ekologik xahakati fuqarolarning hozirgi va kelgusi avlodi qulay atrof-muhitda yashash, aholi salomatligini yaxshilash, barcha tabiiy resusrslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona  foydalanishga jamiyatning bor kuch va salohiyatini  safarbar qilishga intiladi.**
- **O’zbekiston ekologik harakati Qonunchilik palatasidagi 150 deputatlik o’rnidan 15 tasi shu tashkilotga beriladi**
- **2017 yil 22 dekbarda Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis yig’ilishida O’zbekiston ekologik harakati 15 deputatlik o’rnini shunday olmasdan, u ham boshqa partiyalar saylovda qatnashishini taklif qiladi**





# Adabiyotlar ro`yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quraylik. T.,O‘zbekiston, 2017. 488 bet.
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida… -T: O’zbekiston, 1997, 118-162 betlar.
3. Usmonov Q. va boshqalar. O’zbekiston tarixi. Darslik.. –T.: Iqtisod-moliya, 2006.
4. G’ulomov S., Usmonov Q. Mustaqillik O’zbekistonga nima berdi. –T.: O’AJBNT, 2001, 3-8 betlar.
5. O’zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O’zbekiston tarixi. –T.: Sharq, 2000, 7-67 betlar.
6. Usmonov Q. O’zbekistonda parlament taraqqiyotining yangi bosqichi. –T.: G’ulom G’., 2004. 48 bet.



# E’TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT

**Bohodirov Ihtiyor Bohodir o’g’li**

“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi